

## BOLALARDA JIGARNING ASORATLANGAN EXINOKOKK KASALLIGI

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, Termiz sh., O'zbekiston

**Kirish.** Respublikamizda exinokokk invaziyasining tabiiy o'choqlari keng tarqalganligi sababli a'zolarning ko'p va kombinatsiyalangan shikastlanishi bilan kasallanish chastotasi 19-26% ni tashkil qiladi. Bola organizmida exinokokkoz keng tarqalgan o'sishga ega va nisbatan qisqa vaqt ichida katta va gigant o'lchamlarga yetib borishi mumkin, asoratlari bilan ularning chastotasi 26 dan 52% gacha. Ekinokokkoz bo'yicha katta miqdordagi tadqiqotlarga qaramay ayniqsa, bolalarda shikastlanishning ko'p va kombinatsiyalangan shakllarining jarrohlik davolash taktikasi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

**Ishning maqsadi** – Surxondaryo viloyatida jigar exinokokkozining asoratlangan shakllarini tez-tez uchrab turishini o'rganish, davolash usulini optimallashtirishdan iborat.

**Materiallar va tadqiqot usullari.** Mazkur ish 2015-2023-yillarda Surxondaryo Viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga yotqizilgan jigarning turi joylarida joylashgan asoratlangan exinokokk kistasi bilan kasallangan 3 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan 92 nafar bemorning tashxis va davolash natijalari tahliliga asoslangan. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar 13 nafar (12%), 7-12 yoshda 46 nafar (50%), 12-16 yoshli bolalar 33 nafar (33%). Barcha bemorlarga qorin bo'shlig'ining umumiy rentgenografiyasi, ko'krak qafasining ikki proeksiyadagi rentgen tekshiruvi, qorin bo'shlig'i va retroperitoneal bo'shliqning ultratovush tekshiruvi o'tkazildi, tashxis qo'yish qiyin bo'lgan hollarda kistaning joylashishi va hajmini aniqlash uchun kompyuter tomografiyasi va MSKT tekshiruvi amalga oshirildi.

**Natijalar va muhokama.** Qishloq aholisining soni shahar aholisidan bir necha barobar ortib, mos ravishda 81 (77,5%) va 11 (22,5%)ni tashkil etdi. O'g'il bolalar exinokokkoz bilan ko'proq – 63 (68,5%) holatda, qizlarda esa 29 (31,5%) kasallangan. Shifoxonaga murojaat qilishiga sabab bo'lgan shikoyatlar: o'ng qovurg'a osti soxasida og'riq, vazn yo'qotish, umumiy holsizlik, kistaning yorilishi holatlarida peritonitga xos simptomlarning musbat bo'lishi.

Operatsiyadan oldingi davrda keng qamrovli tekshiruvlar o'tkazildi: klinik va biokimyoviy qon testlari, koagulogramma, exinokokkoz uchun serologik testlar (IFA). Aksariyat hollarda exinokokkoz tashxisi birinchi navbatda sonografiya ma'lumotlari asosida aniqlandi. Solitar exinokokk kistalari 49 (53,3%) bemorlarda aniqlangan, ko'p kuzatilganlari 43,3 (46,7%). Ko'pincha patologik jarayon bemorlar jigarining 7-8 segmentida qayd etilgan – 41 (44,5%). Jigar exinokokk kistasining yiringlashi eng ko'p kuzatildi 72 (78,2%), 20(31,8%) bemorlarda yiringlash va qorin bo'shlig'iga kistaning yorilishi kuzatilgan. Jigarning yorilgan exinokokk kistasi bo'lgan barcha bemorlarga shoshilinch ravishda exinokokkektomiya qorin bo'shlig'ini drenajlash operatsiyasi o'tkazildi. Jigarning yiringlagan exinokokk kistalari bo'lgan bemorlar rejali ravishda operatsiyadan oldingi tayyorgarlikdan so'ng operatsiya qilindi. Operatsiya davomida asoratlar yoki jarrohlik muolajalar natijasida o'lim holatlari kuzatilmagan, barcha bemorlar reabilitatsiya davrida tegishli tavsiyalar bilan qoniqarli holatda uyg'a chiqarilgan.



yiringlash va qorin bo'shlig'iga kistaning yorilishi kuzatilgan. Jigarning yorilgan exinokokk kistasi bo'lgan barcha bemorlarga shoshilinch ravishda exinokokkektomiya qorin bo'shlig'ini drenajlash operatsiyasi o'tkazildi. Jigarning yiringlagan exinokokk kistalari bo'lgan bemorlar rejali ravishda operatsiyadan oldingi tayyorgarlikdan so'ng operatsiya qilindi. Operatsiya davomida asoratlar yoki jarrohlik muolajalar natijasida o'lim holatlari kuzatilmagan, barcha bemorlar reabilitatsiya davrida tegishli tavsiyalar bilan qoniqarli holatda uygachiqarilgan.

**Shunday qilib**, jigarning asoratlangan exinokokk kistasida ko'pincha kistaning yiringlashi kuzatiladi, kam holatlarda exinokokk kistaning qorin bo'shlig'iga yorilishi kuzatiladi. Exinokokk kasalligi asoratlanishining asosiy sababi kech tashxis qo'yish, maktablarda va umuman qishloq joylarda o'tkaziladigan profilaktik tekshiruvlarning sifatsizligi va o'z vaqtida o'tkazilmasligidir.